UDC: 616.831-005:616.857:616.13-007.64

ANGIODISPLAZIYALARDA MIGREN BILAN OG'RIGAN BEMORLAR ORASIDA MIGRENOZ INSULT RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Raxmatullaeva G.K., Shakirova S.O.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF MIGRAINE STROKE IN PATIENTS WITH MIGRAINE AND ANGIODYSPLASIAS

Rakhmatullaeva G.K., Shakirova S.O.
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МИГРЕНОЗНОГО ИНСУЛЬТА У ПАЦИЕНТОВ С МИГРЕНЬЮ И АНГИОДИСПЛАЗИЯМИ

Рахматуллаева Г.К., Шакирова С.О.
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Muammoning dolzarbligi. So'nggi yillarda bosh miya qon-tomir kasalliklari nevrologik amaliyotda yetakchi o'rinlardan birini egallab, aholining mehnatga layoqatli qatlamida nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Miya qon tomirlarining tug'ma nuqsonlaridan biri bo'lgan angiodisplaziyalar ko'pincha yosh bemorlarda uchrab, miyada qon aylanishining buzilishi va og'ir klinik nevrologik holatlar rivojlanishiga olib keladi.

Migren keng tarqalgan birlamchi bosh og'rig'i bo'lib, uning aura bilan kechuvchi shakli miya qon aylanishining o'tkir buzilishi, xususan migrenoz insult rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Angiodisplaziya mavjud bemorlarda migren xurujlari og'irroq kechib, ko'pincha migrenoz status, migrenoz insult hamda disirkulyator ensefalopatiya kabi asoratlar bilan namoyon bo'ladi.

Shu sababli angiodisplaziya fonida migrenoz insultning kechish xususiyatlarini o'rganish, uning klinik shakllari va asoratlarini aniqlash hamda erta diagnostika va profilaktika choralarini takomillashtirish zamonaviy nevrologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Maqsad. Angiodisplaziya mavjud bemorlarda migrenoz insultning kechish xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqot usullari. 136 nafar angiodisplaziya bilan og`rigan bemorlar

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, miya qon tomirlarining angiodisplaziyasi mavjud bemorlarda asosan aurali migren kuzatildi – 85 nafar (62,5%). Ularning ko'pchiligida oftalmik (ko'z) shakl aniqlanib, 49 nafar bemorni (57,6%) tashkil etdi. Bazilyar migren 18 nafar bemorda (21,2%) kuzatildi. Oftalmoplegik va retinal migren shakllari esa teng miqdorda – 7 nafardan (8,2%) bemorda aniqlandi.

4 nafar bemorda (4,7%) miya tomirlarining gipoplaziyasi yoki aplaziyasi bosh miya qon tomirlarining king-king kasalligi bilan birga kechganda, klinik jihatdan sporadik gemiplegik migrenga o'xshash migren shakli kuzatildi.

Asoratlar tahliliga koʻra, migrenoz status 62 nafar bemorda (45,6%), migrenoz insult 53 nafar bemorda (39%) aniqlandi, migrenning surunkali shaklga oʻtishi esa 43 nafar bemorda (31,7%) qayd etildi. Shuningdek, 44 nafar bemorda (32,3%) qoʻshma angiodisplaziyalar fonida xurujlar tez-tez takrorlanganda disirkulyator ensefalopatiya rivojlandi.

Xulosalar. Angiodisplaziyalar mavjud boʻlgan bemorlarda eng koʻp aurali migren kuzatiladi. Asoratlar orasida esa birinchi oʻrinda migrenoz status, undan keyingi oʻrinda esa miyada qon aylanishining oʻtkir buzilishi (migrenoz insult) qayd etiladi.